

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAXIRIDDIN MUXAMMAD BOBUR NOMLI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“PEDAGOGIKA” FAKULTETI

“MUSIQIY TA'LIM” YO'NALISHI

4-BOSQICH TALABASI

KARIMOVA (MAHAMMATOVA) DILBAROY

RAHIMJON QIZINING

« QO'SHIQ KUYLASH FAOLIYATI ORQALI BOSHLANG'ICH

SINFLARDA NAFOSAT TARBIYASI VA IJODIY

IQTIDORNI RIVOJLANTIRISH»

MAVZUSIDA YOZGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ANDIJON – 2013

**QO'SHIQ KUYLASH FAOLIYATI ORQALI BOSHLANG'ICH
SINFLARDA NAFOSAT TARBIYASI VA IJODIY IQTIDORNI
RIVOJLANTIRISH.**

REJA

I. Kirish.

I. BOB. Ma'naviy barkamol insonni shakllantirishda
musiqa madaniyati darslarining ahamiyati.

I. 1. Boshlang'ich sinflarda musiqa faoliyati turlari.

I. 2 Qo'shiq kuylash faoliyatini shakllantirish.

I I. Bob. Qo'shiq kuylash faoliyatini orqali nafosat tarbiyasini
rivojlantirish.

I I.1. Qo'shiq kuylash faoliyatini orqali ijodiy iqtidorni
rivojlantirish.

I I.2. Musiqa mashg'ulotlarini o'tishda yangi pedagogik
texnologiyalardan foydalanish

I I I . Xulosa

I V. Ilovalar.

V.Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH.

Mustaqil Respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishda o'zining ijodiy natijalarini bermoqda. O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra 9 – yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limni mintaqaviy hususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa predmeti bo'yicha kontseptsiya ishlab chiqildi.

1992 yil 15 noyabrda "Ma'rifat" ro'znomasida musiqa ta'lim – tarbiyasining kontseptsiyasi loyihasida musiqa ta'limining milliy va ilmiy asoslari mazmuni, tuzilishi, tabaqalanishi, musiqa zqituvchisiga bo'lgan zamonaviy talablar va ta'limlarning ilmiy uslubiy ta'minoti bayon etiladi. Bugungi o'zligimizni anglash, o'z taqdirimiz va farzandlarimiz istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan. Mustaqil O'zbekistonda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash umumta'lim maktablarda yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish, hamda hozirgi kunimizni to'laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik, tarixiy bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topadi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib etishishlarida o'ziga xos, takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan davlat standartlari asosida yangi ta'lim mazmunini o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalar bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustaxkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak yosh avlodni etuk qilib tarbiyalashda "Musiqa madaniyati" darslarini ahamiyati katta. Musiqiy madaniyat darslari o'quvchilarni ahloqiy – estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardagi go'zallikka bo'lgan his – tuyg'ularini o'stiradi, musiqa man'atiga mehr – muhabbat, qiziqish uyg'otadi, ona – Vatanni sevishga, bir – birini, kattalarni hurmat qilish, mehnatni, tabiatni sevishga, qadrlashga o'rgatadi va hayotda o'z o'rnini topa olishga madad beradi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, musiqani idrok etishi, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash va raqsga tushish, ijodkorlik malakalarini shakllantirish, musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi

hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart – sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim tarbiyasining vazifasini tashkil etadi. Hozirgi musiqiy ta'lim – tarbiyasi shuni ko'rsatadiki milliy musiqa merosimizni o'rgatishda musiqa darslarini va sinfdan tashqari musiqa tarbiya tizimini ahamiyati katta. Musiqa darslarini hayotga joriy etish maqsadida umumiy o'rta ta'limiy maktablar uchun musiqadan 1999 yili davlat ta'lim standarti asosida yangi dastur ishlab chiqiladi. Yangi dasturning asosiy mohiyati avvalo darsning mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi. Darsni qiziqarli qilish uchun musiqa ijodkorligi qo'llaniladi, barcha musiqa faoliyatlari (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash) dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bog'lanib o'tiladi.

Oliy Majlisning 1997 yil 28 avgustdagi IX – sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” muhim tarixiy, amaliy hujjat bo'lib ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni dunyoning ilg'or demokratik davlat darajasiga etkazish, va yosh kadrlarni yuksak ma'naviyat – ahloqiy, yuqori bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Shuningdek, yosh, kadrlarimizni tayyorlashda zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishimiz lozim. Bunda eng asosiy maqsad o'quvchi – yoshlarimizni qobiliyati va imkoniyatlarini aniqlab to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Bu borada yurtboshimiz I. A. Karimovning – “Barchamiz yaxshi yanglab olishimiz kerakki hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatini tiklanishi, boy merosimizning keng o'rganishimiz, an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir”, - degan so'zlari ma'naviyat cho'qqisiga intilishga chorlamoqda.

I - BOB. Ma'naviy barkamol insonni shakllantirishda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha ijtimoiy-ma'naviy sohalarda bo'lgani kabi musiqa sohasida ham avvalo milliy an'analarimizni, merosimizni asrab avaylash va rivojlantirish jarayoni boshlanadi. Bu hol o'tgan davrlarda erishilgan muvaffaqiyatlarni, to'plangan badiiy qadriyatlarni milliy va umuminsoniylik nuqtai nazaridan umumbashariy qadriyatlar ustivorligiga asoslangan holda taraqqiy etilishi imkoniyatini yaratadi.

Binobarin mustaqillik tufayli milliy musiqa madaniyatimiz o'zining azaliy manbalaridan kuch olib, milliy ruhiyatini, ma'naviy kamolotini shakllantirishiga xizmat qila boshladi, zamonaviy janrlar bilan boyigan holda xalqimizni yangi jamiyat qurishga ruhlantirmoqda.

Musiqa shunday vositaki, u yangi avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tinglovchi dunyoqarashini shakllantiradi. Ayni choqda u insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, his-tuyg'ularini boyitadi.

Inson hayotida qo'shiqning ham hamisha o'z o'rnini, o'z vazifasi mavjud u ermakka to'qilmagan, havasga aytilmagan bekorchilikdan eshitilmagan: Qo'shiq kishilarni yashashga, kurashga chorlagan, mehnatga, muhabbatga ruhlantirgan, dardu-qayg'usiga malham, baxtu quvonchiga sherik bo'lgan. Qo'shiqning xalq orzu-armonlarining ifodasi, xalq ruhiyatining ko'zgusi hisoblanishi shundan.

Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi.

Toki odamzod o'zini qurshab turgan tashqi olamda, o'zi yashayotgan jamiyatda, o'zi bilan muloqotda bo'layotgan kishilarda tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilayotgan badiiy ijod namunalari muajassamlashgan go'zallikni his qila olmas ekan, xech qachon barkamol inson darajasiga ko'tarila olmaydi.

Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biri.

Shaxsni kamol toptirishda musiqa madaniyatining o'rnini va ahamiyatining ochib berish, birinchidan, inson va uning mohiyati masalasini, ikkinchidan

ma'rifatlilik ko'lamini, uchinchidan ma'naviy kamolotda musiqa ega bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash demakdir.

Sharq mutafakkirlari musiqaga doir alohida risolalar yozib qoldirganlar. Ular Sharq musiqa madaniyati va uning o'ziga hos badiiy estetik va tarbiyaviy mohiyati haqida ajoyib fikr mulohazalar bayon etganlar.

Musiqaning inson ma'naviyatiga ta'siri haqida so'z ketganda buyuk Sharq mutafakkiri Forobiyni eslamay iloji yo'q. Forobiy qomusiy olim bo'lish bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Uning musiqa sohasidagi faoliyati faqat nazariy qarash bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy ifodasini ham topgan. Forobiyning o'z davri uchun yangilik bo'lgan musiqa asbobini yaratgani mohir sozanda va bastakor sifatida tanilgani haqida rivoyatlar ko'p.

Forobiy o'zining "Musiqa haqida katta kitob" asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi. Ikkinchi xili esa ehtirolarni qo'zg'ab, jo'shqin qiladi va, nihoyat uchinchi xil musiqa borki o'yg'a toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi. Shunday qilib, Forobiy musiqaning rivojlanish bosqichlarining inson ruhiga u yoki bu holda ta'sir qilishini ma'naviy oziq berib, uning yaxshi ishlarga ruhlantirishini, xursandchilik va qayg'uda odamga hamdam bo'la olishini va, nihoyat musiqa odamni katta ishlarni amalaga oshirish uchun kurashga chorlay olishini bashorat qilgan.

I.A. Karimov "YUksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida aytganidek - Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixiy va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk yozuvchilarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ugug' adib Cho'lpon aytganidek adabiyot yashasa- millat yashaydi.

Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Xalqimiz hayoti musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg'usi topilganligi ham shundan dalolat beradi.

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali YAZdiy o'zining "Zafarnoma" kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to'xtalib, "YAXshi ovozli xonandalar kuylashni

boshlab, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mo'g'ul, xitoyu arab va ajamdin har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi", degan ma'lumotlarni keltiradi.

Mustaqillik yillarida ulug' bobolarimizning ana shunday an'alarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab avaylash va o'rganish, va uni yosh avlodlarga bezavol etkazishmaqsadida ko'plab ko'rik tanlovlar, nufuzli xalqaro musiqa anjumanlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.

Barchamizga ayyonki, kuy qo'shiqqa san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Forobiy musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablar hususida yozar ekan, musiqaning ahloqiy tarbiyaviy jixatlariga diqqatni jalb etadi. "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, - deb yozadi Forobiy "Ixso al ulum" asarida o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) hulqini tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan hulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) hulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tanning salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi uning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarini tartibga solinishi va substantsiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi".

Forobiy kuylarning turlari va ularning inson ruhiyatiga ta'siri haqida gapirib, ularni uch turga ajratadi: bir ko'ngilga lazzat va roxat bag'ishlaydi: boshqasi birinchi tur kuylar birga qo'shilib, ko'ngilni taxayyul bilan boyitadi. Bu jarayonda narsalarning suvratlari go'yoki chizilayotgan yangilik ko'ngilda gavdalanadi: uchinchi xil kuylarxayvonning lazzati yoki aziyati bilan bog'liq infiolot va axvoli haqidagi mazmundan tarkib topadi.

Abu Ali Ibn Sino qadimgi yunon faylasuflari hamda Forobiyning musiqa to'g'risidagi ta'limotlarini chuqur o'zlashtirgan holda musiqaning inson ma'naviyati bilan bog'liq jihatlariga ham katta e'tibor beradi. Olimning fikricha,

“Musika hayotbaxsh, oliyjanob ahloqiy hususiyatlarini rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi, uning intellektual va ahloqiy qiyofasini shakllantiradi”.

Umuman, musiqa inson tabiatni nechogʻlik oʻzgartirgani, insonning inson bilan oʻzaro aloqasi va munosabatlari naqadar bogʻliq ekanligi Ibn Sinoning “Kitob ash shifo” risolasining musiqa boʻlimida bayon etiladi.

Demak, Sharq allomalarining musiqa va insone ma'naviyatiga doir qarashlaridan shu narsa ayyon boʻldiki, musiqa asarlari kishilarni estetik va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda beqiyos imkoniyatlarga ega.

Musiqa har davrning ijtimoiy - iqtisodiyva ma'naviy – mafkuraviy hayotning muhim va ta'sirchan vositasi boʻlib kelgan. Musika asarlari xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib qolmay, balki kishilarni mavjud ijtimoiy tuzumga, jamiyatga, hayotning salbiy xodisalariga nisbatan boʻlgan qarashlarning ham his ettirgan.

Ma'naviy barkamol insonni shakllantirishda musiqaning ahamiyati haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash joizki, musiqa asarlarning inson goʻzallik, ulugʻvorlik, koʻtarinkilik, tushkunlik, gʻamginlik, hazinlik, mayuslik, singari tuygʻularni uygʻotuvchi hususiyatlari mavjud va xuddi mana shu jihatlari orqali inson ma'naviyatga ta'sir koʻrsatadi. Bundan tashqari musiqa insonning umuman hayotga boʻlgan estetik munosabatlarini kuchaytiradi va noziklashtiradi, ayniqsa, yoshlarning iste'dodini roʻyobga chiqarish, ahloqan poklanish, hayotga moslashish, biror kasb hunar egasi sifatida ijtimoiy faollashishiga yordam beradi. Musika bilan chinakam oshno boʻlganshaxsning xatto tashqi qiyofasi xatti-harakati va muomala madaniyatida ham oʻzgarish roʻy beradi.

Xalqimiz madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish, xususan oʻsib kelayotgan yosh avlod ta'lim – tarbiyasiga e'tibor hamda ularning dunyoqarashlarini kengaytirishda, erkin fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishda milliy musiqaning ayniqsa, oʻzbek bolalar folklor qoʻshiqchiligining oʻrni beqiyosdir. Milliy musiqamiz durdonalari va an'anaviy qoʻshiqlarimizni avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, kuylanib, soʻzlash orqali cholinib kelingan. Mumtoz kuy va qoʻshiqlarimiz, ayniqsa, oddiy xalq tilidan kuylangan oʻlanlar, allalar, lapar va yallalar, aytishuvlar teginma qoʻshiqlar shular jumlasidan. Xalqimizning asriy an'analari, odob-ahloqiy, ta'lim-tarbiya tizimi borasidagi yutuqlari, oʻziga hos turmush tarzi va qadriyatlarini ifodalagan Ona tilimizni mazmun mohiyati hamda qadr – qiymatini chuqur angladi. Oʻzbek folklorida oʻrganiladigan har bir qoʻshiqni yoki xatti-harakatning ma'nosida xalqimizning

azaliy tarixi yotadi. Aynan qo'shiqlar orqali kishilarning hayoti kuylangan, yashash tarzi turli harakatlar orqali aks ettirilgan. Musiqa madaniyati darslarida folklor namunalaridan foydalanishning qulay jihatlari shuki, oddiy xalq tili bilan kuylangan qo'shiqlar va harakatlar o'quvchi yoshlar ongida tez shakllantiriladi. Bugungi kunda musiqa san'atini rivojlanishi va unga bo'lgan e'tibor davlat e'tiborida bo'lar ekan. Iqtidorli yoshlarning kelajagi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa, 2008 yil yurtboshimizni "Musiqa maktablari faoliyatlarini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bizlar uchun ham fahr, ham quvonchdir. Bundan quvongan yosh avlod va ularga murabbiylik qilayotgan pedagoglarning imkoniyatlari yanada kengayadi, bajarayotgan ishidan unum topadi. O'zbek bolalar folklor namunalaridan yanada kengroq foydalanish ta'lim – tarbiyaning yuksalishida muhimdir. Ayniqsa, bolalarni tabiatni sevishga, kattalarni hurmat qilishga, mehnatsevarlikka undovchi kuy – qo'shiqlar musiqa madaniyati darsida o'rganilayotgan har bir qo'shiqqa asos bo'la oladi yoki boshqacha aytganda qo'shiqning mazmunini yuqoridagi sifatlar bilan bog'lab o'quvchi yoshlarni tarbiyalash mumkin.

I. 1. Boshlang'ich sinflarda musiqa faoliyati turlari.

Dars musiqa tarbiyasi tizimida etakchi omil hisoblanadi chunki, bolalar yalpi tarzda qamrab oladi. Musiqa bolalarni aqliy hamda akliy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas balki, musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ifodali, "jonli" qilib ijro etib o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini o'stirish fikrlash qobiliyatini dunyoqarashini kengaytirib emotsional his-tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik ma'daniyatni tarkib toptirish va boshqa ichki xis-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondoshishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash:

- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash:

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, yana bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi did bilan na'munali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalqi cholg'u asboblari bilan jixozlangan bo'lishi yangi dasturdan foydalanib, dars reja konspektlarini tuzib yangi texnologiyaning qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan o'zviy olib borishini talab etiladi.

Musiqa darsi boshqa darslarda o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan

ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darsi eng avvalo tarbiya darsidir. Musiqa darslari quyidagi spetsifik hususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1) Musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal – xor mashg’ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg’u asbobida chalish, musiqaga mos ritmik xarakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2) Musiqa boshqa san’at turlaridan o’zining ifoda vositalari, ya’ni “tili” bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so’z bilan tasviriy san’at ranglar bilan, raqs san’ati xarakat bilan ifodalansa musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. YUqoridagi san’at turlarini ko’rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko’zi ojiz kishilardan ham etuk musiqachilar etishib chiqqan

3) Musiqa aniq vaqt o’lchovi bilan bog’langan san’atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralarini his etamiz.

4) Musiqa bolalarga faol emotsional ta’sir ko’rsatadi, quvontiradi hammada ijodiy kechinmalar uyg’otadi, yaxshi mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo’lib chiqadilar, hullas musiqa darsi o’zining faol psixologik ta’siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Shuningdek musiqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog’liqdir. Tasviriy san’at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan bog’lashga mazmunli, qiziqarli qilib dars olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o’zining aralash darsi tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi. Boshlang’ich sinf musiqa darsi 5ta faoliyat turidan tuziladi:

1.Xor bo’lib kuylash

2.Musiqa savodi

3.Musiqa tinglash

4.Musiqaga mos xarakatlarni bajarish

5.Bolalar cholg’u asboblarida jo’r bo’lishdan iborat.

I. 2 Qo'shiq kuylash faoliyatini shakllantirish.

Bolalarni musiqiy uquvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, vokal – xor ishlarining ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarni kuylashga qiziqтира olish ko'p jihatdan o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiq o'qituvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog'liq. Chunki yosh bolalar bilan olib borilgan vokal – xor ishi ko'pincha o'qituvchi ovozigа taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak. Vokal – xor ishlarini amalga oshirishda o'qituvchi ovoz sozlash qo'shiq o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni (do1 - do2) ishchi diapazoni (mi1 -fa1 -sol1) primar tovushlarida kuylash uchun qulay bo'lgan (sol1 – lya1) tovushlarini aniq bilishi lozim.

Musiqа madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi:

Bolalar diqqatini qo'shiqqa jalb qilish.

Qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi (qo'shiq mualliflari, asarning mazmuni, tarixiy xususiyatlari haqida qisqacha xikoya qilish).

Qo'shiqni taxlil qilinishi (musiqа ifoda vositalari, ladi, xarakteri mazmunini suxbat yo'li bilan belgilash).

Qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgatish (to'g'ri nafas olib, jumlani oxirigacha tejab etkazish, ijrochilik sifatleri ustida ishlash).

Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish (qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o'tkazish ya'ni umumlashtirish).

Qo'shiq kuylash murakkab psixologik – fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqа madaniyati darslarida vokal – xor ishlari, o'quvchilarni ahloqiy estetik tarbiyasio'qitishning eng faol shaklidir. Qo'shiq kuylash o'quvchilarning diqqat e'tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqini rivojlantiradi, ovoz diapazonini kengaytiradi, musiqiy uquvini o'stiradi, mutatsiya engil o'tadi, dunyoqarashi yildan – yilga shakllanib boradi. Vokal – xor malakalari musiqа darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xor mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat – e'tibori, ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiq kuylaganda, ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi. Vokal – xor malakalari yordamida o'quvchilar qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqа ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni

o'rganadilar. YUqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal – xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo'lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki, aynan vokal – xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin.

Vokal – xor malakalari 6 (olti) turga bo'linadi:

1. Darsda qo'shiq kuylash holati
2. Ashulachilik nafasi
3. Ovoz hosil qilish
4. Sozlanish
5. Ansambl
6. Talaffuz.

1.Qo'shiq kuylash holati deganda darsda o'quvchilarning o'tirishi va turishi holati nazarda tutiladi. O'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o'quvchilarga tushuntirish lozimligi haqida o'quvchilarga tushuntirish va doimo nazorat qilib, eslatib turishdan iboratdir. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to'g'ri tutish, o'tirib kuylaganda partaning suyanchig'iga suyanmasdan, elkalarni engil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yin va boshni to'g'ri ushlash, qo'llarni pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga engil qo'yib engashmasdan o'tirish va oyoqlarni elka kengligida holatida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2. Ashulachilik nafasi. Ma'lumki kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas o'rtasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug'ilgan kundan tabiiy holda hayotining oxirigacha amal qila boshlaydi va aniq bir ritmdan ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Ashula aytishdagi nafas esa qo'shiq xarakteriga qarab, tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Nafas olish va uni chiqarish qo'shiq jumlasining cho'zimiga, sur'atiga va xarakterning ifodalanishiga qarab cho'ziladi. Sun'iy nafasdan aktyorlar, suxandonlar va qo'shiqchilar foydalanadilar. Shuningdek, ya'ni ehtiyojga qarab olinadigan nafas, ashulachilik nafasi deyiladi.

Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud:

Ko'krak nafasi:

Diafragma nafasi:

Qorin nafasi.

Kichik bolalarning ko'krak nafasi xali tor, qisqa ekanligi sababli, ular nafasni ko'krak bilan oladilar, shu bois ashula aytganlarida elkalarini ko'tarib, shoshilib va qo'shiq jumlasini, so'zini bo'lib nafas olishlari tabiiydir. Shuning uchun bolalarning elkalarini ko'tarmasdan, osoyishta, vazmin nafas olishi va uni qo'shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda etkazishi, ayniqsa so'zni bo'lib nafas olmaslikni o'rgatib borishi lozim. Nafas olish malakasini ustida ishlash jarayonida bolalar diqqatini ovozlarning kuychan, ravon, yoqimli jaranglashiga jalb etiladi. Buning uchun gulni hidlaganday osoyishta va shovqinsiz nafas olishga o'rgatiladi. Ana shu malakani amalga oshirishda darsliklarda, qo'llanmalarda tavsiya etilgan vokal – xor mashqlarini kuylash, bolalar xorlarida ijro etilgan qo'shiqlarni, magnit tasmlar orqali tinglash amaliy mashg'ulotlarda shakllantirib boriladi.

Bolalar mashq va qo'shiqlarni kuylaganda o'qituvchining qo'l ishoralariga qarab nafas olishga va uni tejab, rasamadi bilan jumla oxirigacha etkazishga odatlanib borishadi. Ayniqsa, dirijyorlik holatlari “diqqat”, “auf”, “ijroni boshlash”, “ijroni tugatish” larga rioya etib kuylashga o'rgatish nafasni rejaga solish uchun muhimdir. Bolalar nafasining hajmi imkoniyatlarini xisobga olgan holda mashq va qo'shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo'yiladi va ularni o'rgatish jarayonida amalga oshiradi.

Ovoz hosil qilish

Ovozni vujudga kelishi murakkab psixologik, fiziologik jarayondir. U ovoz apparati (kekirdak, hiqildoq) va uning ichidagi konussimon ikkita ovoz pardasining nafas (o'pka, traxeyalar, ko'krak qismi) va eshituv apparatlarining birgalikdagi amaliyotida hosil bo'ladi. Tomoqda hosil bo'lgan tovush kuchsiz va xishillab, sadolanib chiqadi, uning nutq apparati ayniqsa burug bo'shlig'i orqali tebranishi kuchayadi va o'ziga xos tembri va jarangdorlik hususiyatiga ega bo'ladi. To'rt organ – nafas, ovoz, nutq va eshituv apparatining o'zaro faoliyatidagi musiqiy ohangga qo'yiladigan ovoz – ashulachilik ovozi deb ataladi.

1-sinfda o'quvchilarning ovozni zo'riqtirmasdan kuylatish uchun ashulla aytishi primar (sol1 –lya1) bo'lakdi, ishchi diapazoni (mi1 – si1). Umumiy diapazon (re1 – do2) bo'lib, bunga meyorida amal qilish izim.

Bolalar bosh rezonatoriga asoslangan faltsetga yaqin ovozda kuylaydilar.

Bolalarni kuylaganda faqat yumshoq ataka bilan boshlash lozim, xech qachon qo'shiqni qattiq ataka bilan boshlamaslik kerak. Buni o'qituvchi nazorat qilib borishi shart.

Sozlanish

Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o'z ovoziniga unga moslab kuylashi, saqlanishi degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda – ma'lum balandlikdagi tovushni aniq intonatsiya kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo'lib hisoblanadi, chunki boshlang'ich sinfdagi vokal – xor ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison (sof bir ovozda kuylashga) erishishdan iboratdir. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish olib boriladi. Ayniqsa, musiqa uquvi sust rivojlanayotgan bolalarga e'tibor kuchaytiriladi. Ularni o'qituvchi ovoziga cholg'u asboblardan soz uchun berilayotgan tovushga va iqtidorli bolalar ovoziga qo'shilishga va tovush balandligi bilan barobarlashishga, ya'ni tenglashishga da'vat etiladi va intonatsion sof sozga erishiladi va bir xil balandlikda kuylanadigan mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Ansambl

Ansambl - frantsuzcha so'z bo'lib birgalikda degan ma'noni anglatadi. U musiqa, balet, arxitektura san'atlarining qonuniyatlaridan biridir. Musiqada bir necha ijrochilikning birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Masalan: o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambli, raqs ansambli, vokal ansambli va boshqalar. Xorda esa barcha xonandalarning soz birligi, ijro tempi, ritm – usul va dinamik uyg'unligi vokal – xor ansambli deyiladi. Ansambl xususiy va umumiy turlarga bo'linadi. Xordagi barcha ijrochilikning bir ovozga sozlanib hamma bir kuyda ansambl bo'lib, ikki yoki uch ovozda kuylashi umumiy ansambl deyiladi. Har bir ovozni alohida – alohida sozi va ansambli xususiy ansambl deyiladi. Soz va ansamblni uyg'unligi uzoq ish jarayonini talab etadi va shundagina oldimizga asosiy maqsad qo'yilgan sof unisonga erishish mumkin.

Talaffuz

Kuylashdagi talaffuz nutqi talaffuzdan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlari (lab, til, jag') ning faol hamjihatligi, vositasida amalga oshiriladi. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish natijasida xorda baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga e'tiborni

kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda ish olib borish, shoshmasdan, erkin gapirish va kuylashga undash lozim. Nafasni to'g'ri olib jumlaning oxirigacha etkazishda unli tovushlarni cho'zib, undosh tovushlarni burro dona – dona qilib kuylashga o'rgatib borish talab etiladi. Bunda og'iz shaklini, tilni xarakatlariga, o'zgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi bolalarni mashq va qo'shiqlar matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga o'rgatib borish lozim.

II BOB Qo'shiq kuylash faoliyatini orqali nafosat tarbiyasini rivojlantirish.

Tarbiyalash deganda har tomonlama etuk-o'zida ahloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni etishtirish nazarda tutiladi. Tarbiyaviy vazifalar orasida kishilarda estetik did va ehtiyojlarni shakllantirish katta rol o'ynaydi.

Estetik tarbiya ya'ni nafosat tarbiyasi tizimida san'at etakchi o'rinda turadi. Hozirga qadar estetik tarbiyaning mazmuni hamda vazifalari turlicha talqin qilib kelingan. Ko'pchilik olimlar va tarbiyachi amaliyotchilar estetik tarbiyaga badiiy idrok, did va ehtiyojlarni tarkib toptirish vositalari, shakllari hamda usullarini tizimi sifatida qaraydilar. Bu esa estetik tarbiyaning shaxsda faqat badiiy jixatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bir tomonlama mazmunini ifodalaydi. Estetik tarbiyani bunday tushunish ko'ngilsiz natijalar berishi mumkin. YA'ni bir so'zning ma'nosida "estetlarni", boshqacha aytganda badiiy shakllarini yaxshi biladigan, tashqi go'zallikni idrok etadigan, lekin ma'naviy jihatdan qashshoq, hayotdagi, xatti – xarakatlardagi hamda san'at asarlarining mazmunidagi go'zallik va xunuklikni ko'rmaydigan hamda anglamaydigan kishilarni etishtirishimiz mumkin. Shuningdek ular shaklini, tashqi go'zallikni ancha to'g'ri baxolay oladilar. Ammo ko'pincha san'atning mazmuniga, hayotdagi bema'nilikka loqayd qaraydilar.

Estetikani chinakkam tushunadigan kishilarni kamol toptirish uchun nafosat tarbiyasiga boshqacha yondoshish zarur. Estetik tarbiyaning mazmuni va vazifalarini ifodalashda hamda belgilashda estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim qismi ekanini, unga tarkibiy bog'liqligini va ana shu tarbiyadan kelib chiqqanligini hisobga olish kerak.

Estetika faqat tabiatdagi va san'atdagi go'zallikni emas, balki umuman hayotdagi va jamiyatdagi go'zalliklar to'g'risidagi fandir. Estetik tarbiya chinakkam go'zallikka muxabbatni shakllantirishi, ba'emazagarchilikka, bema'nilikka nisbatan nafrat uyg'otishi, go'zallik yaratishga intilishni va go'zallik yarata olish ko'nikmasini, san'at hamda hayotdagi xunukliklarga qarshi kurashish iqtidorini tarkib toptirish lozim. Mana shu murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun xaqiqiy estetik (sof badiiy) tarbiya bilan ma'naviy tarbiya o'zaro dialektik bog'lanishi shart. Estetik tarbiya ma'naviy masalalar bilan yo'g'rilishi kerak. San'atni va hayotni estetik jihatdan to'g'ri

idrok etishning o'ziyoq shaxsni ma'naviy yuksaltiradigan va boyitadigan vosita ekanini unutmaslik lozim. Estetiklikni ma'naviylikdan ajratish mumkin emas. Binobarin har qanday shakl muayyan mazmunining in'ikosi bo'lib, san'atning istalgan turi hayotni, eng avvalo, uning ijtimoiy, ma'naviy normalarini aks ettiradi. Estetiklik voqelikning hamma sohalarida namoyon bo'ladi. Bular kishining san'atga estetik munosabati, estetik hissiyoti, tabiatdagi, san'atdagi, mehnatdagi, odamlarning hatti-harakatidagi, hayotiy voqealardagi estetiklik va hokazolardan iboratdir. Har qanday narsa yoki voqeani estetik baxolay olish shaxsning ajralmas sifatidir. Ammo mana shu baxolashning xarakterini, uning obektivligini kishining estetik tarbiyalanganlik darajasi belgilaydi.

YUqoridagilarning hammasini nazarda tutgan holda ta'kidlash lozimki, estetik tarbiya tizimini yaratishda san'at hayotning barcha tomonlari bilan bog'liqligini hisobga olish zarur. Binobarin san'at faqat estetik hodisa emas balki g'oyaviy hodisa hamdir. Shunga ko'ra estetika tarbiyaning muhim qurolidir. San'at ijtimoiy voqelikni aks ettiradi, uni muayyan darajada g'oyaviy baxolaydi, kishilarni turlicha idrok qilishga voqelikdagi har xil fakt va hodisalarni baxolashga yo'naltiradi. Mana shularning hammasi san'atning g'oyaviy vazifalarini belgilaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasida: estetik did kategoriyasi ancha murakkab bo'lib, estetik ongni boshqa tarkibiy qismlari orasida muhim o'rin tutadi. Mazkur tushunchaning asosiy metodologik mezonlari etarli darajada ishlab chiqilmaganligi sababli ham e'lon qilingan ishlarning mualliflari did tushunchasini juda turli-tuman, ba'zan esa ziddiyatli tarzda ta'riflaydilar, bu hol didni shakllantirish usullarinihar xil talqin qilishga olib kelmoqda.

“Musiqiy – estetik did” degan so'z birikmasi bamisoli ikki tushunchadan: badiiy(musiqiy) va estetik diddan tashkil topganday tuyuladi. Biz musiqiy – estetik didni ta'riflashga urinishda tushunchaning bu har ikkala tomonini qarab chiqishimiz lozim.

Tariximizdan ma'lumki, estetik didga doir ko'p sonli ta'riflar orasida quyidagi ta'rif diqqatini o'ziga tortadi: “Estetik did tabiatdagi, buyumlardagi san'at asarlaridagi, kishilarning qiyofasi va hulq – atvoridagi va o'z sayyi – harakatlaridagi estetik qadriyatlarning hilma-xil manbalariga tayanib, ongli munosabatda bo'lishdir”. Badiiy didning farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlash uchun quyidagi mulohazalarni keltirib o'tish zarur deb hisoblaymiz: “Badiiy did – psixikaning san'at asarlariga o'ziga xos tarzda baxo berish qobiliyati, ular orasidagi badiiy asarlarni badiiyligiga zid narsalarda fikrlash qobiliyati,

shuningdek butun asar va uning tarkibiy qismlarining badiiyligi darajasini farqlash qobiliyatidir”. Estetik va badiiy ta'riflarini qiyoslash bizni shunday hulosaga olib keladiki: “Estetik did”, “Badiiy did” tushunchasidan kengroq, chunki birinchi holda voqelikdagi barcha xilma-xil tomonlarga estetik baxo berish haqida gap borsa, ikkinchi holda faqat san'at asarlariga baxo berish haqida gap boradi.

“Musiqiy – estetik did” tushunchasini aniqlashtirish uchun estetik didga berilgan yana bir necha batafsil ta'riflarga qarabchiqamiz. Bu ta'rifda estetik didning eng muhim hossalari, baxo beruvchi soxasi, estetik ongning boshqa elementlari bilan bog'lanish, xissiy mintaqaviy soxalarning birligi kabi xossalari ham ko'rsatib o'tilgan.

Estetik did tarkibida xissiy va oqilona narsalarning birga qo'shilishi quyidagi ta'rifda ham aytib o'tilgan: “Estetik did – shaxsning xissiy oqilona afzal ko'radigan narsalari tizimi bo'lib, ular har bir shaxsning go'zallik haqidagi tarixiy degermenistik tasavvurlaridan o'sib chiqadi va uning hayot faoliyatiga mos keladigan, faol harakatga undaydigan tasavvurlaridan iboratdir”.

Musiqiy estetik did baxo beruvchi xususiyatga ega bo'lib, hissiy va oqilona baxsni o'zida birlashtiradi, u musiqiy tasavvurlarning tugallanishiga asoslangan bo'lib estetik munosabatlarning birga qo'shilishi bilan bog'liqdir, ya'ni didga baxo berish insonning butun hayoti va badiiy tajribasiga asoslanadi. Mazkur hulosaga tayanib biz o'zimizning musiqiy – estetik did haqidagi ta'rifimizni taqdim etishimiz mumkin. Bunda biz mazkur kategoriyaning qaenday falsafiy psixologik mezon sifatida qarab o'tilgan ta'riflarning mualliflari bu kategoriyanı munosabat, qobiliyat, hislat, hususiyat, estetik ongning va estetik tarkibiy qismi, shuningdek hissiy oqilona afzal ko'rish tizimi sifatida talqin qiladilar. Bizning nazarimizda tushunchaning eng psixologik va funktsional ta'rifi “Munosabat” so'zi hisoblanadi chunki u shaxsning afzal ko'rish va san'at asarining ta'sir ko'rsatish jarayonini aks ettiradiki, undan tashqarida - musiqiy – estetik did namoyon bo'la olmaydi.

Bu aytilganlarning hammasiga tayanib turib, biz musiqiy – estetik didni quyidagicha tarzda ta'riflaymiz: Musiqiy – estetik did bu musiqiy san'at asariga bo'lgan baxo beruvchi – tinglovchi yaxlit munosabati bo'lib u ko'pgina musiqiy taassurotlar va ularni hissinı anglatgan tarzda taxlil qilish natijasida shakllanadi. Musiqiy – estetik didni shakllantirishga insonning alohida qobiliyati va mayllari: milliy hususiyatlari, an'analari, turmush tarzi ta'sir ko'rsatadi.

Musiqiy – estetik did ancha kengroq tushuncha bo'lib “Musiqiy – estetik tarbiya” tushuncha bilan chambarchas bog'liq, u musiqani tarbiyalovchi vazifasini amalga oshirish jarayonidir, bundan maqsad jahonni rivojlantirish, uning san'atiga va umuman hayotga bo'lgan faol estetik munosabatni shakllantirishdir. Musiqa avvalo kayfiyatni ko'taradi, ijodiy his – tuyg'ularni qo'zg'otadi. Abu Ali Ibn Sinoning “Al-shifo” asarida ham musiqaning ta'sir quvvati cheksiz ekani, u inson miyasida ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tilgan. Shuning uchun ham yoshlarimiz musiqaga qiziqishlari tabiiy hol deb tushunamiz.

Aslida musiqa tinglashga tamoyillik o'zbek oilalariga bolalar fe'lida ham ancha barvaqt kuzatiladi. Hatto beshikdagi go'dakni kuzatsangiz, u kuy qo'shiqni eshitsa o'zgacha holatga tushadi, ko'zlari chaqnab beixtiyor gavdasini harakatga keltira boshlaydi. Buxorolik mashhur muhaddis Kalabodiy o'z davrida musiqaning ruhiyatga ta'sirini o'rganib shunday ifodalagan: “Ot ulovlarga qaraginki, to'xtab qolgan chog'da unga qo'shiq aytsa somiy quvvatidan ta'sirlanib ancha yukni manzilga bexato etkazadi. Bolaga qaraginki, belanchakda onasi alla aytsa somiy quvvatidan ul orom olib uxlab qoladi. Ko'pgina devonalarni somiy bilan davolashadiki, ular shifo topib, hushlariga qaytadilar...” Somiy eshitish a'zolari orqali qabul qilinuvchi ilohiy hitob.

“Musiqaning tarbiyaviy vazifasi” degan atama faqat musiqa san'atining ta'sir ko'rsatish jarayonini emas, shu bilan birga muayyan ma'naviy, amaliy natija berishi nazarda tutiladi. YA'ni musiqaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishining pedagogik mohiyati uning shaxsning ma'naviy jihatdan o'zgarish ta'sirida o'z ifodasini topadi. U badiiy tafakkur xissiy sohasining ijodiy qobiliyatlar yaxlit ma'naviy olamning rivojlanishida o'quvchi yoshlarimizning ma'naviyatini, didini, tafakkurini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biridir, u atrofidagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va kadrlashga o'rgatadi. O'quvchilarga nafosatli tarbiya berishda umumta'lim maktablaridagi, musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. O'quvchilar nafosat hissini san'at sirlarini tushunishni va qadrlashni, san'atdan baxramand bo'lishni avvalo maktablarda o'rganadilar. Nafosat didini shakllantirish uchun esa, musiqa madaniyati dasturlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ahamiyati katta. Chunki, sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy va to'g'arak shakllarida bolalar yalpi tarzda jalb etiladi. Zotan, musiqa tarbiyasi sozanda yoki xonandani emas, eng avvalo insonni tarbiyalaydi. O'sib kelayotgan

yosh avlodni musiqa, go'zallik olamiga olib kiradi. Chunki, musiqa inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega va ahloqiy-nafosat tarbiyasining muhim vositasidir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib umrbod musiqadan zavq topadi. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan bo'lishi kerak. Olimlardan birlari «Odam shaxs bo'lish uchun, u ruhiy tomonidan rivojlanishi, o'zini bir butun inson deb his qilmog'i kerak»- degan edi.

Shaxsni rivojlantirish uchun avvalo, uning hulqiga ta'sir etuvchi omillarni, uning tabiatini, qiziqishini o'rganish lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlari doirasiga qo'yib kuzatish kerak. Ana shundagina uning ijtimoiy hulqi ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. «Har bir inson – degan edi Abu Nosir Al Forobiy – o'z tabiati bilan shunday tuzilganki u yashash va yuksaklikka erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, shu sababli u ko'p narsalarni o'zaro yordamlashuvi orqali etuklikka erishadi».

Bolani shaxs sifatida rivojlantirishda nasl, atrofidagi muhit, tarbiya muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi bu omillarni kuzatib, o'rganib chiqib, o'quvchilarni qiziqishi, qobiliyati, musiqaga, go'zallikka, mehnatga munosabatlariga qarab, musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini singdira borishi lozim. Inson musiqadan umrbod zavq topadi va madad oladi. Shu bois o'quvchilarga musiqa madaniyatini tarbiyalash, yuksak did bilan qurollantirish ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisini vazifasidir. Musiqa inson ruhiyatiga emotsional ta'sir ko'rsatish bilan birga musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy ohanglar bilan ta'sir etadi, bolalarni quvontiradi, o'ylantiradi, yaxshilikka, go'zallikka etaklaydi va nafosat olamiga olib keladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslariga e'tibor yanada kuchayib, boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Shu bilan birga, iqtidorli o'quvchilarni maktab hayotiga ommaviy va to'garak ishlariga jalb etish boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasidir. Musiqa madaniyati darslarida miliy musiqa meroslaridan to'laqonli foydalanish va bugungi zamonaviy asarlarni musiqa darslarida qo'llash, o'qituvchidan ish mazmunini va uslubini yangilashni talab etadi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z fanini puxta bilishi, bolalarni sevishi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish metodikasidan chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Chunki yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqa o'qituvchisi etakchi bo'lib hisoblanadi. Maktab hayotida boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisini faoliyat miqyosi kengdir. Musiqa madaniyati darslaridan tashqari, o'quvchilar bilan tarbiyaviy

musiqali ochiq darslar o'tkazadi. Bu hozirda ishlayotgan o'qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi. Bunday talablar yangi nashrdan chiqqan qo'llanmalar, tavsiyanomalar, dasturlar, darsliklar, keng ma'noda mazmunli kilib yoritilgan. Musiqa o'qituvchisi dars jarayonida qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqaga mos bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish musiqiy ritmga harakatlar bajarish kabi dars faoliyatlarida musiqaga qiziqтира olish, ularni musiqiy qobiliyatlarini o'stirishga harakat qilish lozim. Chunki, musiqa o'qituvchilarga tez ta'sir eta oladigan ta'lim tarbiya vositasidir. U o'qituvchilarni shaxs bo'lib shakllanishi uchun ommaviy va ahloqiy tomondan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, musiqa madaniyati darslari avvalo tarbiya darsi deb ataladi. Dars samaradorligini oshirish musiqa o'qituvchisidan mehnat, o'z faniga muhabbat, bolalarni go'zallik va nafosat olamiga olib kirish uchun bilim, mehr va shijoat talab etadi.

II 1. Qo'shiq kuylash faoliyatini orqali ijodiy iqtidorni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim haqida"gi qonunida ta'lim bilan tarbiyani birgalikda olib borish masalasi asosiy vazifa qilib belgilangan. Bugungi kunning talabi – respublikada ta'lim tizimini takomillashtirish, Vatanga munosib farzandlar, yuqori mallakali kadrlarni tayyorlash masalasidir.

Maktabda har bir predmetni o'qitish jarayonida o'qituvchi ta'limni tarbiya bilan bevosita bog'lab olib borishi kerak. Bu ishda musiqa darsining imkoniyatlari benihoya kattadir. Musiqa insonni ruhi va aqliy rivojiga o'zining ta'sirini o'tkazadi va uning estetik hissiyotini faollashtiradi.

Ijodiy faollik o'quvchilar tafakkurining o'sishiga, xotiraning rivojlanishiga, dars materialini o'zlashtirishga, musiqani ongli idrok etishga yordam beradi. Bunda o'quvchilarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan repertuar tanlash, ularning ijodiy faolligini oshirish zaruriy shartidir. Repertuar mazmunan boy, rang-barang o'quvchilarning idrokiga mos va tarbiyaviy qimmatiga ega bo'lishi kerak.

Musiqa darslarining samarali bo'lishi, sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish uchun o'qituvchining so'z mahoratiga, muloqot qilish san'atiga ega bo'lishni taqozo etadi. O'qituvchi qiziqarli hikoya suhbatlari bilan bolalarni diqqatini asar mazmuniga, musiqiy obrazlarga jalb etadi. Kompozitorlarning ijodiyotiga oid hikoyabop qiziqarli voqea va lavhalardan parchalar keltirishi bilan biron-bir asarning yaratilish tarixini bayon qilish bilan o'qituvchi o'quvchilarning bilish qobiliyatini o'stiradi, musiqa haqidagilim doirasini yanada ma'lumotlar bilan boyitadi.

Har bir musiqa darsida o'qituvchi tomonidan ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar yoqimli, chiroyli hamohang qilib ijro etilishi lozim. Chunki o'qituvchining ta'sirli ijrosi o'quvchilarni asarga qiziqtirish uchun jonli vosita hisoblanadi. Xususan o'zbek musiqa va milliy cholg'u asboblari keng foydalanish darsni yanada jonli va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. O'zbek musiqasi bilan bir qatorda qardosh va horijiy xalqlarning musiqasini o'rganib borish o'quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

O'quvchilarning ijodiy faolligini o'stirish uchun dars jarayonida "Men yoqtirgan kuy va qo'shiqlar", "Men sevgan kompozitor" kabi mavzularda munozarali suhbatlar, baxslar uyushtirish, o'quvchilarga qiziqarli uy vazifalar berish, topishmoq o'yinlarini o'ylab topish, ilg'or o'quvchilarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, musiqa darslarida turli harakatlar bilan bajariladigan o'yin elementlaridan foydalanish darsning samarali bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilarning uchburchak, metallafonlar, har xil shiqildoqlar va boshqa urma cholg'u asboblardan foydalanishlari yaxshi natijalar beradi. Bunday mashg'ulotlar dars mazmunini yanada boyitadi, bolalarda ijodkorlik, ijrochilik malakalarini har tomonlama rivojlantiradi, bolalarning faoliyatini faollashtiradi.

O'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish o'qituvchidan mas'uliyatli o'ta izlanuvchan, topqir, ya'ni bolalarda ijodiy zavq uyg'ota olish mahoratiga ega bo'lishni talab etadi.

O'quvchi yoshlarni musiqa yordamida tarbiyalashdagi asosiy vazifa, ularga o'zbek musiqasining bugun rivojlanib, tarixi davomidato'plangan barcha musiqiy madaniyati boyliklarini etkazish va ularning ongiga singdirish lozim. Zotan, shu jarayonda milliy asoslar o'quvchi yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda tabiiy va qulay zamin hisoblanadi. Bu o'zbek musiqasi mazmunining shakl janrdagi emas, balki ta'lim (o'qitish) uslubida ham namoyon bo'ladi.

Misol qilib olganimizda o'zbek maktablarida o'quvchilarga musiqa ta'limining mazmunini etkazish ustoz-shogird og'zaki an'anaviy uslubi ijrochiligining improvizatsiya shakllari, musiqiy uslub ohanglarini sezish va usul jo'rnavozligini xilma-xil shakl va uslublarini tarbiyalash. Ularning barchasi shu kuy bilan tabiiy va mantiqiy bog'langan holda diqqat bilan va tezda anglab etishni talab qiladi. Maktablarda olib borilgan pedagogik amaliyot tajribasini o'rganish va tahlil qilishshuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinflarning o'quvchilari milliylik sezilib turadigan usiqalarni berilib va yaxshi idrok etadilar. Bolalar musiqa asboblardan alohida mehr bilan foydalanadilar. Shularga asoslanib, musiqiy estetik his-tuyg'u va mill shart-sharoitda tarbiyalanishning natijasi ekan degan hulosaga keldik.

Ijodiy iqtidorni rivojlantirishda qo'shiq kuylash va musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarni iloji boricha ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularni dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini

o'stirish, tabiatga Ona Vatanga bo'lgan mehr – muhabbatini oshirishdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqa darslaridan tashqari ommaviy va to'garak ishlari olib boriladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikki shakli mavjud.

1.Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli.

2.Musiqa tarbiyasining to'garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy uquvini tekshiruvdan o'tkazmay, yalpi tarzda jalb etishni takozo etadi. Bularga qo'shiq bayramlari, “Musiqa haftaligi”, “O'zbekiston Vatanim manim”, “Ilhom chashmalari” ko'rik – tanlovlaridan ijodiy uchrashuvlar, teatr va kontsertlarga sayohat “Alifbe” bayramlariga, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar kiradi. Ammo, bularning har biriga bolalarning yoshi qiziqishiga qarab oldindan tayyorlab borishi kerak. Bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashkil etib, amalga oshirish, chinakam badiiy – musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim.

Musiqa o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy, musiqiy ishlar rejasi, musiqa o'qituvchisi va maktab ma'naviy – ma'rifiy ishlar mudiri, maktab etakchisi bilan hamkorlikda, o'quvchilarning yoshiga qiziqishiga qarab bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy uquvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri aniq ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uni asosiy maqsadi, hususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o'quvchilarni jalb etiladi. To'garak ishlarini esa ish rejasini musiqa o'qituvchisining o'zi o'z hohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlari o'quvchilarni musiqa qobiliyati, hohish istagi, qiziqishi, ovozigacha qarab tanlab oladi va turli to'garak tuzadi. Qarab tanlab oladi va turli to'garpaklar tuzadi. Haftasiga 2 – 3 bor to'garakni guruhlariga bo'lib ishlaydi. To'garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli qiziquvchan musiqa darslarida aktiv qatnashadigan o'quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to'garagiga jalb etiladi. To'garak faoliyatini faollashtiradigan narsa bu maktab sahnasidir. O'quvchilar tadbirlarda, qo'shiqlar, raqslar ijro etib maktab jamoasi oldida e'tibor qozonib, tuman, shahar, respublika ko'rik – tanlovlarida qatnashadilar. Bu ularni o'z mehnatidan zavqlanishi his – tuyg'ularini Ona Vatanga muhabbat, musiqa san'atiga hurmat, do'stlari orasida mehr – muhabbat tuyg'usini oshirib boradi.

Sinfdan tashqari tarbiya ishlarida o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab turli to'garaklar tuzishi mumkin:

Xor

VIA

Ashula va raqs ansambllari.

Vokal ansambllari.

Cholg'uchilar ansambli (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar)

Raqs ansambli.

Orkestr (duxovoy, xalq cholg'u asboblari orkestri)

Yakkaxon qo'shiqchilar.

Folklor dastasi.

Maktabdan tashqari musiqaviy tarbiya bolalarda musiqiy ijodiyotni rivojlantirish shakliga bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatrlari, muzeylar kiradi. Mazkur muassasalarga qatnashadigan bolalar ham o'qituvchi nazoratida bo'lib maktab hayotiga , ularning faol qatnashuvlarini ta'min etish lozim. Maktab hayotida boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Musiqa darslaridan tashqari zamon talabiga mos ravishda tadbirlar tayyorlab, o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi lozim.

II.2. Musiqa mashg'ulotlarini o'tishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

O'tgan asrning 50-yillariga kelib ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga e'tibor yanada kuchaya boshladi. Bu intilish o'uvchilar auditoriyalarini kengaytirish hamda yangi texnik vositalardan kengroq foydalanishlar hisobiga amalga oshirila boshlandi. Bu oqim "Ta'lim texnologiyasi" deya atala boshladi.

1960 yillarning boshlarida "texnologiya" tushunchasining mazmunini ta'lim tizimini dasturlash egalladi. Ta'lim jarayonini umumlashtirgan yaxlit dastur asosida olib borish g'oyasi AQShda tashkil qilingan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita" tomonidan e'lon qilindi. Unda ta'limni tubdan o'zgartirish hamda o'quvchilarning baxolashning asosiy mezonlari ko'rsatib berildi.

Musiqiy ta'lim bo'yicha ham bir qator inovatsion o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, bu o'zgarish, yangilikning asosiy Karl Orf tizimi – musiqiy ta'lim cholg'u sozlari vositasida tashkil qilish muammosi ko'tarib chiqildi.

Shunday muhim inovatsion o'zgarishlardan yana bir bu "nisbiy solmizatsiya" masalasi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa savodini o'rgatish uchun qulay bo'lib, Do, Re, Mi, Fa, Sol, Lya, Si nota qatori o'rniga YO, La, Vi, Na, Zo, Ra, Ti tizimini qo'llash tavsiya qilingan. Bu tizim ma'lum darajada respublikamiz umumiy ta'lim maktablarida ham qo'llanila boshlangan edi.

70-80 yillarga kelib sobiq ittifoq respublikalari qatorida o'zbek musiqa ta'limi tizimiga ham akademik D.B.Kabalevskiy tizimi kirib keldi. Shu davrda yaratilgan o'quv qo'llanmalari va darsliklarida bu tizim ma'lum darajada o'z izini qoldirgan. Unda musiqaning 3 turdagi tayanch janrlariga marsh, vals, va raqs elementlariga asoslanish isbotlab berilgan.

Ammo, Respublikamiz musttaqillikka erishganidan so'ng esa bu tizimdan faqat milliy an'analarga tayangan holda ixtiyoriy ravishda foydalanish imkoniyati tug'ildi.

1992 hamda 1997 yillarda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlashning milliy dasituri" hamda "Davlat ta'lim

standartlari” orqali yangicha ta'lim tizimini yuzaga keltirildi. Bu tizimning ikki muhim jihatiga to'xtalgan holda shuni ta'kidlash joizki birinchidan musiqiy ta'lim tizimini xalqimizning asrlab to'plagan milliy qadriyatlari asosiga qurish ikkinchidan jahon musiqiy an'alaridan bohabar raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga asoslanadigan bo'ldi.

Maktablar faoliyatining hozirgi nazariyasi va amaliyotida o'quv tarbiya jarayonining yangi yo'llarini amalga oshirish va uni olib borishning ko'plab variantlari mavjud. Har bir muallim hamda amaliyotchi pedagogik jarayonga o'zining ulushini qo'shadi. Lekin ko'p yangi texnologiyalar o'z maqsadlari, mazmuni qo'llaniladigan metodlari va vositalari bo'yicha etarlicha ko'p o'xshashliklarga ega bo'lish shu umumiy belgilariga ko'ra tavsif qilinadi.

Qo'llanilish darajasiga ko'ra:

Falsafiy asosi bo'yicha:

Asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha:

O'zlashtirish kontseptsiyasi bo'yicha:

Shaxsiy belgi sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha:

Boshqaruv turi bo'yicha:

Bolaga yondoshuv bo'yicha:

Qo'llaniladigan metodlar bo'yicha:

Ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha:

Yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha quyidagicha tavsiflash mumkin.

qo'llanish darajasiga ko'ra umumipedagogik:

rivojlantiruvchi omili bo'yicha asosiy e'tibor jamiyatning faol ishtirokchilari bo'lgan barkamol insonlarni tarbiyalashga shaxsning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lish:

o'zlashtirish kontseptsiyasi bo'yicha, assotsiativ – reflektor bo'lib suggestiya (namuna, misol, o'rnak, ibrat ko'rsatish)ga tayangan holda.

Shaxsiy belgi sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha: axborotli ya'ni shaxsning bilim, malaka, ko'nikmalarini shakllantirish va mustaxkamlashga yo'naltirilgan:

Mazmun xususiyatlari bo'yicha dunyoviy, texnokartik, umumta'lim mazmunda bo'lib, ta'lim – tarbiya jarayonida faoliyatni tashkil qilish va olib borishda didaktikaga markaziy o'rin beriladi.:

Boshqaruv turi bo'yicha: an'anaviy mumtoz (klassik) bo'lib, unga ta'limning texnika vositalari qo'shilgan:

Bolaga yondoshuv bo'yicha avtoritar,

Ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha: tushuntirish– illyustratsiyalash:

Ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha: ommaviy va boshqalar,

Musiqqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham DTS joriy etilgan va unda milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkoni berilgan. Bular xalq kuy va qo'shiqlari amaliyoti, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida maqom, shashmaqom, dostonlar va zamonaviy musiqqa mavzularida o'z baksini topgan. Musiqqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol shaxs bo'lib etishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Sharq, jumladan o'zbek musiqqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi azaldan “ustoz va shogird” an'analari misolida takomillashib kelgan. Keyinchalik esa o'qituvchilar asarlarni shogirdlariga nota yozuvlari orqali o'rgata boshlaganlar. Qadimgi Gretsiyada esa musiqqa insondagi donolik mardlik xususiyatlarini tarbiyalashi mumkin deb hisoblangan. Xaqiqatdan ham har bir san'at insonga ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa musiqqa inson ruhiyatiga emotsional ta'sir etishda katta kuchga ega. Musiqqa ta'limi boshqa fanlar kabi tarbiyaning asosiy vazifasini boshqara oladi. Shu bilan bir qatorda musiqqa yoshlarni jaxon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rgatishini, xalqaro nufuzga doir bo'lgan madaniy durdonalardan baxramand bo'lishini ta'minlaydi. Musiqqa san'at sifatida ijtimoiy ong formasidir. U kishining his tuyg'ularini ifodalashi bilan birga u hayotiy voqelik va davr in'ikosidir. Musiqqa darsi jarayonining asosiy omillari sifatida quyidagi faoliyat turlari mavjud: Musiqqa eshitib zavqlanish (musiqqa tinglash), qo'shiq ijro etish, musiqqa savodiga doir bilimlarni anglab olish, raqsga tushish va musiqqa sirlari ostida turli harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblari ijrosini maqsadli idrok etib borishdan iborat. YUqoridagi maqsadni amalga oshirishda eng avvalo o'quvchilarni tinglay olish madaniyatiga o'rgatish kerak. Musiqqa tarbiya vazifalarini bajarish uni amalga oshirish uchun o'quvchilarni

tinglashga o'rgatish kerak. Odamlarning aksariyat ko'pchiligi jiddiy musiqani tinglashmaydi chunki uni tushunishmaydi. Tushunish uchun esa tayyorgarlik talab etiladi. Agar tayyorgarlik ko'rilmasa bilim ham bo'lmaydi. Tinglashga o'rgatish qo'shiq ijro etishdan murakkabroqdir. (masalan: simfonik musiqalar, opera va boshqalar) o'quvchilarni musiqadagi yuksak badiiyligini tanishtirish lozim. Bunday asarlar o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didini tarbiyalaydi. Ko'p sonli savodxon tinglovchilarni tarbiyalash uchun musiqa shaydolarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni sevishga o'rgatib borish lozimdir. Musiqani sevish bu musiqani doim tinglash va uni ongli idrok etish demakdir. Musiqani tushunish – bu uni his etish, tahlil eta olish demakdir. Avvalam bor o'quvchilarni tinch va boshidan oxiriga asarni tinglashga o'rgatishimiz kerak. O'qituvchi o'quvchilarga asarni tinglash jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini aytib o'tish kerak. O'qituvchi tinglash davomida rahbarlik qilishi lozimdir. O'qituvchi tinglanayotgan asar mazmuni orqali ahloqiy estetik tarbiya berishi lozim. Musiqa tinglashga o'rgatishda o'qituvchi oldiga qo'yiladigan vazifalar:

Musiqa san'atiga havas uyg'otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali ularni qiziqtirish bolalar musiqiy ehtiyojini kuchaytirish, o'quvchilarda badii taassurotlarini to'plab borish. Jamiyat taraqqiyoti xech qachon to'xtab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi bu tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham musiqa madaniyati o'qituvchisi o'quvchilarni ma'naviy badii va ahloqiy madaniyatining shakllantirishi, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ijodiy mahoratning nafosatda, badii didini o'stirish fikr doirasini kengaytirish mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakllantirib borishi lozimdir. Biz bilamizki pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson ma'naviyatlari tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi. Musiqa madaniyati o'qituvchisini pedagogik mahoratlaridan eng avval birinchisi ta'ldim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarini o'rganishi, ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib borilishi lozim. Bu albatta ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko'zda tutilgandek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayoni axborot bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlanadi. O'quv uslubiy, ilmiy, inovatsion, zamonaviy texnologiyalar mukammallashib o'quv jarayoniga tadbiiq etib borilayabdi. O'qituvchining dars samaradorligini oshirish uchun inovatsion texnologiyalardan

foydalanish yaqindan yordam beradi. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Jumladan: "notalar olamiga sayohat" ushbu texnologiya boshlang'ich sinflarda o'tkaziladi. Sinf o'quvchilari bilan notalar haqida suxbat o'tkaziladi va ko'rgazmali qurollar yordamida qaysi tovush qaysi chiziqqa yozilishi ko'rsatiladi va yozdiriladi. Ilova 1,2,3, "Kema manzilga etib keldi" (to'lqinlar ichidan manzilga intilayotgan ikkita qog'ozdan yasalgan kema tasmadan o'tkaziladi, bu ko'rgazma doskaga ilinadi) bu texnologiya o'rta sinflarda o'tkaziladi. O'qituvchi o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha qisman ma'lumot beradi va guruhlariga kompozitorlar ijodi yoki to'liq mavzular yozilgan matnlar tarqatiladi. O'quvchilarga ma'lum vaqt beriladi. O'quvchilar mavzuni tushunib olishgach, bo'lingan guruhlar joylar bilan almashadilar va partadoshlariga mavzularni navbatma – navbat tushuntiradilar. O'qituvchi tomonidan guruhlariga berilgan savollarga to'g'ri javoblar olinsa ko'rgazmadagi kemalar to'lqinlardan o'tkazilib suriladi. Qaysi guruh savollarga birinchi bo'lib to'liq javob bersalar shu guruh kemasi manzilga birinchi bo'lib etib keladi.

YAngi metod va texnologiyalar bir vaqtda musiqa madaniyati darsida o'qituvchining so'z mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim. O'qituvchining asar haqidagi kirish so'zi va dars mazmunini tushuntirib berishi, o'quvchilarni ajoyib va sehrli san'at musiqa olamiga olib kiradi va qiziqarli suhbat bilan bolalar diqqatini musiqa mavzulariga yo'naltirish mumkin. O'qituvchini musiqa asari haqidagi xikoyasi qisqa va qiziqarli bo'lishi kerak, o'quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirish lozimdir.

Jumladan: uch minutli qiziqarli va obrazli xikoya bir necha soatli zavqli, amaliy mashg'ulotni ta'min etadi. Bunda ko'proq kompozitorlarning ijodiy biografiyasi, qiziqarli voqealar lavhalar qo'llaniladi.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda bo'lgan usulni qo'llasa, musiqa haqida to'g'ri mulohaza yuritishga, to'g'ri xulosalar chiqarishga yordam beradi. Bu faoliyatda o'qituvchi rejissyor singari ularni boshqarib, to'g'ri yo'l ko'rsatishi lozim.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni musiqa madaniyati darsini o'qitish jarayonida qo'llash avvalo o'quvchilarga darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi idrok etish malakasini rivojlantiradi. qolaversa ta'lim mazmunini yangilaydi.

Masalan:

Aqliy xujum. Texnik vosita yordamida darsni qiziqarli bo'lishini ta'minlash maqsadida noan'anaviy ta'lim metodlarini turli xil usullardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Savol – javob:

Kuy qaysi xarakterda ijro etilgan?

Ajam kuyi qaysi cholg'u asboblari jo'rligida ijro qilingan?

qaysi cholg'u asboblari bilasiz?

Doira, nog'ora qaysi cholg'u asboblari guruhiga kiradi.?

Tanbur, dutor qaysi cholg'u asboblari guruhiga mansub?

Nay, qo'shnaychi?

Javob:

Kuy mungli ohangda ijro etilgan.

Ajam kuyini doira, tanbur, rubob, nay, g'ijjak, dutor kabi o'zbek milliy cholg'u asboblari jo'rligida ijro etilgan.

Doira, rubob, tanbur, nay, g'ijjak, dutor kabi cholg'u asboblari bilamiz.

Doira, nog'ora zarbli cholg'u asboblari guruhiga kiradi.

Tanbur, dutor torli cholg'ular asboblari guruhiga mansub.

Nay, qo'shnay damli (puflama) cholg'ular guruhiga kiradi.

“Klaster” usuli:

Bu usulda o'zbek xalq cholg'ulari “kalit” hisoblanadi va doskaga yoziladi. YOzilganda Klaster usulida “o'zbek xalq cholg'u asboblari” to'g'risida barcha ma'lumotlar keltiriladi va guruhlar bo'yicha tartibga solinib boriladi.

Dars oxirida o'tilgan mavzu mustaxkamlanadi. va mavzu yuzasidan uyga vazifa topshiriladi. Bu usul o'quvchilarning o'z nuqtai nazarini asoslash, boshqa kishilarning g'oyalariga kirib bora olish, guruh bo'lib qaror qabul qila olish malakasini oshiradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa madaniyati fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanilsa dars samaradorligi oshadi, o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Umumta'lim maktablarida musiqa tarbiyasini amalga oshira borar ekanmiz, o'qituvchi oldida o'quvchilarni o'z darsiga, musiqaga qiziqish va havas uyg'otish vazifasi turadi. Maktabda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda qo'shiq aytish musiqa tinglashga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish va moyillik asta sekin yoshlarning san'atga bo'lgan ijobiy munosabatlari va qolaversa ehtiyojlarining tarbiyalanib, shakllanib borishida muhim o'rin tutadi.

Musiqa darsi o'z tabiatiga ko'ra san'at darsidir. Uni rang – barang sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab etadi. “Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatda murakkab, - deb ta'kidlaydi taniqli kompozitor D. B. Kabalevskiy, - hamma murakkablik shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas ”.

Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish, uning orombahsh ta'siridan bahramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori emotsional his tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. Asarni ijro va idrok etishda his tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish, to'yinish va zavq olish ham shunchalik ongli va chuqur bo'ladi. Bu holatlar esa o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero zerikarli va sokinlik holati sinfda jonli hissiyot holatini tashkil eta olmaydi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan asarlar repertuari bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezonlari o'quvchilarning yoshlarga, qiziqishlari, bilim va ko'nikmalari darajasiga mos bo'lish tematikaning rang-barangligi, g'oyaviy-badiiy sifati hamda pedagogik qimmati bilan belgilanadi. Bilim boshqa so'z bilan aytganda maktabda o'quvchilarning yoshlari va idrok etish qobiliyatlari mos keladigan o'tmish va hozirgi zamonning eng yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, o'zining forma va mazmuni bilan go'zal va hayotbahsh, nafis va xushohang asarlar yangrashi lozim. Zero faqat mana shunday asarlarga o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg'ota oladi, ahloqiy – estetik hissiyotlarini, zarur bo'lgan qobiliyatlarini o'stirib boradi. Bu o'rinda zamonaviy qo'shiqlar qatori xalq qo'shiqlardan keng va oqilona foydalanish darsni yanada qiziqarli va sermazmun bo'lishini ta'minlaydi, yosh ijrochilarda xalqimiz ijodiga, uning musiqa va qo'shiq san'atiga bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ularini shakllantirib boradi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish darslarni naqadar qiziqarli, mazmunli, tushunarli va qolaversa materiallarning rang – barang bo'lishligiga bog'liqdir. Musiqa asarlari, rang –

barang ko'rgazmali qurollar musiqa haqidagi qiziqarli fakt va ma'lumotlarga boy bo'lgan, boshidan oxirigacha sust bo'lmagan sur'atda tashkil qilinadigan darslar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

“Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki – ta'lim tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni kunda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta'lim tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.” – Islom Karimov.

Hozirgi davr dunyodagi qarama – qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Shuning uchun ham yosh avlodni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash ishiga barcha vositalar ishga solinmoqda.

Bu borada musiqa san'ati xususan qo'shiqchilik ikki buyuk san'atni she'riyat va musiqani o'zida mujassamlashtirgani holda katta tarbiya quroliga aylanadi.

Psixolog olimlarning fikriga ko'ra, musiqa inson bosh yarim sharlarida joylashgan neyronlarning asab kataklarining eng ichki qavatiga etib boradi va u erda mavjub bo'lgan boy energiya zaxirasini ishga soladi. Bu o'z navbatida asar mazmunidagi g'oyalarni, badiiy obrazlarni yanada yaqinroq tasavvur qilishga imkon beradi. Shuning uchun ham odatda “So'z tamom bo'lgan joyda musiqa bashlanadi” – deyiladi. YA'ni fikrni so'z bilan ifoda qilib bo'lmagan taqdirda – uni musiqa orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining “Musiqa madaniyati” darslariga kiritilgan qo'shiqlar dasturida ham istiqlolni, mustaqilligimizni o'zligimizni bayram va an'analarimizni, Ona Vatanimizga bo'lgan cheksiz tuyg'ularni ifodalovchi o'nlab asarlarni uchratish mumkin va bu asarlar o'quvchilarda ijodiy faollikni o'stirishga hizmat qiladi.

Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi shundaki musiqa darslari oldiga ta'lim va tarbiya yo'lida katta vazifalar qo'yilgan. Nafaqat ma'naviy, ahloqiy – estetik tarbiyani amalga oshirish balki qo'shiq va musiqa san'ati orqali o'quvchilarda komillik, uning go'zal tabiati insonlarga muhabbat, do'stlik, birodarlik, tinchlik g'oyalarini singdirish kabi vazifalar belgilaydi, ularning ijodiy iqtidorini oshiradi.

Bu vazifalar musiqa darsining har bir faoliyatida o'quvchilarning ijodiy faolligini o'stirish orqali amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Millatning kelajagi hisoblangan yosh avlodni har tomonlama etuk shaxs bo'lib voyaga etishida, ularning ta'lim – tarbiyasi, ma'naviy kamoloti masalasi davlat darajasiga ko'tarilib bu yo'lda qator maqsadli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash jarayoni jadallashishi munosabati bilan yosh avlodni ma'naviy – ahloqiy tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, intellektualligi, ijodiy iqtidorining ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni taraqqiyotning intellektual qadriyatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga etkazadilar. Zero, xuquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxsning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda yoshlarning ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalanishida nafosat tarbiyasi, intellektualligi, ijodiy iqtidorining rivojlanishida milliy musiqamizning roli alohida ahamiyatga ega. Chunki, aynan yoshlarimizning milliy mentalitetimizga hos bo'lgan qadriyatlarini saqlab qolishida milliy musiqa san'atining ham o'z o'rnini bor. Ma'lumki milliy musiqa san'atimiz yoshlar o'rtasida samimimiyatini o'zaro mehr – oqibatini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Musiqa ta'limining mazmun va mohiyati zaminida barkamol avlod, komil inson tarbiyasi yotadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish, farzandlarimiz musiqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan katta dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab – avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol etkazish hamda yoshlarimizni ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan “Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnika bazasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Farmoyishi” musiqa rivojiga yanada ulkan hissa bo'lib qo'shiladi. Ushbu farmoyish nafaqat musiqa va san'at maktablari, balki, umumta'lim maktablari “musiqa madaniyati” darslariga bo'lgan e'tiborning ham kuchayishiga olib keladi.

Prezidentimiz I. Karimovning “YUksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida: “Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib keladi.

Musiqi sadolari qaysi xalq yoki millot vakili tomonidan ijro etilmasin , eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi.

Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda", degan fikrlarni o'qiymiz.

Har bir xalqning milliy kuyi va qo'shiqlari mavjud. Lekin yosh avlodni komil inson bo'lib tarbiya topishida o'zbek xalqigagina mansub bo'lgan boy musiqiy merosi alohida ahamiyatlidir. Barkamol avlod tarbiyasida xalqimizning orzu umidlari, hayotiy kechinmalari, ma'naviy dunyosini o'zida aks ettirgan, alla, lapar, mehnat va marosim hamda boshqa xalq qo'shiqlari muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Ana shunday boy merosni o'sib kelayotgan yosh avlodni ongiga singdirish bugungi kun musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining oldidagi muqaddas burchlaridan biri bo'lmog'i shartdir. Mazkur faoliyat turini kengaytirishni to'g'ri yo'lga qo'yishni avvalo oiladan maktabgacha ta'lim muassasalaridan, boshlang'ich sinf davridan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun ta'lim muassasasining mutaxassisi turli faoliyat shakllaridan foydalanishi kelajagimiz mevasi bo'lmish yosh avlodda nafosat tarbiyasini shakllantirish, ijodiy iqtidorini rivojlantirish zarur. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida mazkur jarayonni o'yin ko'rinishida tashkil qilish mumkin.

“Ohangni toping” – bilag'onlar o'yini orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqa tinglash bo'yicha egallagan bilim malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, kengaytirish mumkin. Ushbu o'yinni tashkil qilishdan oldin bolalar diqqatini bir joyga jalb qilib, mazkur o'yinning mohiyatini tushuntirib beriladi. Bu o'yinni kichik guruhlar aro musobaqa tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Asosan o'zbek xalq kuy va qo'shiqlardan berilgan parchalar o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga undaydi. O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarga uyga vazifa qilib uyda televidenie, radio orqali tinglagan kuy va qo'shiqlarni tahlil qilishini topshirsa, bu holat o'quvchilarning doimiy ravishda musiqani to'g'ri tinglay olish madaniyatini shakllantirish va musiqani to'g'ri tinglay olish ijodiy iqtidorini rivojlantirish malakalarining o'sishiga ham olib keladi. Bundan tashqari o'quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishda turli mavzudagi tadbirlarning tashkil qilinishi ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan: "Milliy kuy va ohanglar kechasi", "Siz musiqani

bilasizmi?” viktorinasi, “Ohanglar ezgulikka etaklar” singari badiiy musiqiy tadbirlar orqali bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish bilan bir qatorda ularning musiqani tinglay olish madaniyatini hamda ijodiy iqtidorini shakllantiradi va rivojlantiradi.

MUNDARIJA

I.	Kirish.....
I. BOB.	Ma'naviy barkamol insonni shakllantirishda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati.....
I. 1.	Boshlang'ich sinflarda musiqa faoliyati turlari.....
I. 2	Qo'shiq kuylash faoliyatini shakllantirish.....
I I. Bob.	Qo'shiq kuylash faoliyatini orqali nafosat tarbiyasini rivojlantirish.....
I I.1.	Qo'shiq kuylash faoliyatini orqali ijodiy iqtidorni rivojlantirish.....
I I.2.	Musiqa mashg'ulotlarini o'tishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....
I I I .	Xulosa.....
I V.	Ilovalar.....
V.	Foydalanilgan adabiyotlar.....